

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNALOGIYALAR
UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 635.1/8

BOBOMURATOVA MAHLIYO MUHIDDIN QIZINING

“Simmental va qora- ola zotli sigirlarning sut mahsuldorligi va ayrim biologik xususiyatlari”

Chorvachilikmutaxassisligi bo‘yicha Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: q.x.f.n.dots. _____ Sh.A.Karimov

Termiz-2026 yil

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti rektorining 2024-yil 27-oktyabrdagi №08-M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot, o‘rmonchilik va veterinariya fakulteti Zootexnologiya, veterinariya va ipakchilik kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manziling QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetining axborot-resurs markazida tanishish
mumkin

(__raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Islom Karimov
ko‘chasi, 288-uy.)

Ilmiy rahbar: _____ Sh.A.Karimov

Kafedra mudiri _____ Sh.A.Karimov

Magistratura bo‘limi boshlig‘i: _____ S.Tilakov

70810803 – Chorvachilik mutaxassisligi magistranti Bobomuratova Mahliyo Muhiddin qizining “Simmental va qora- ola zotli sigirlarning sut mahsuldorligi va ayrim biologik xususiyatlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

ANNOTASIYASI

Kalit soʻzlar: Chorvachilik, simmental, qora- ola, zot, sigir, sut, mahsuldorlik, ayrim biologik va xususiyat, yogʻ va oqsil.

Tadqiqotning obyekti: Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida joylashgan Toshpoʻlatov Joʻraniyoz chorvachilik fermer xoʻjaligida 2024–2026 yillar olib borildi. Tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti: Tadqiqot ishining obyekti boʻlib, Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi Toshpoʻlatov Joʻraniyoz fermer xoʻjaligini qoramollari hisoblandi. Tadqiqot ishining predmeti boʻlib esa birinchi tugʻim sigirlardan sogʻib olingan sut xizmat qildi.

Tadqiqotning maqsadi: Ushbu tadqiqot ishining maqsadi fermer xoʻjaligi sharoitida urchitilayotgan Simmental va qora-ola zotli qoramollarning oʻsish, rivojlanish koʻrsatkichlari va sut mahsuldorligini oʻrganishdan iborat boʻldi.

Tadqiqotning vazifalari: Ishni bajarish jarayonida maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish rejalashtirildi:

- Fermer xoʻjaligi sharoitida sut yoʻnalishdagi qora-ola va qoʻsh mahsuldor yoʻnalishdagi simmental zotiga mansub urgʻochi mollarning oʻsish va rivojlanishini oʻrganish;

- Birinchi tuqqan sigirlarning podani qayta toʻldirish xususiyatlarini va laktasiyaning dastlabki 90 kunida sut mahsuldorligini oʻrganish;

Tadqiqot ishining metodlari Simmental va qora- ola zotli sigirlarning sut mahsuldorligi va ayrim biologik xususiyatlari sifatida 2 guruh qoramol tanlandi: Sof zotli Qora-ola sigirlar (12 bosh), simmental zotli sigirlarlar (12 bosh) -jami 24 bosh. Tadqiqot davomida zooveterinariya amaliyotida keng qoʻllaniladigan oʻlchash va baholash usullaridan foydalanildi. Oʻzbekiston Respublikasi hududida qoramollarni

moslashtirishni o'rgangan bir qancha olimlar, I.X.Irgashev (1980 – 2003), A.R.Djabbarov (1980), O.Davronov (1993), D.Ibragimov (1990 – 2007), T.A.Abdurahmanov (1997) va R.B.Davlatov (2006-2008) turli yillar davomida ular tomonidan keng miqyosda tadqiqot ishlari olib borilgan.

Sigirlarning sut mahsuldorligi ularning tirik vazniga bog'liqligi Sh.A.Akmalxanov, M.Mirxidoyatov, Mashirov, M.Boratov (1983), M.I.Samarsev, K.Madaminov (2002), A.S.Sagindikov (2003), A.I.Prudov, A.I.Balsanov, I.M. Dunin, A.P.Velmatov va boshqalar (2004), M.I.Ashirov (2004) tadqiqotlarida ham aniqlangan.

K.X.Xabibullin, A.G.Avizov (2001) tadqiqotlarida sigirlarning tirik vaznining oshishi ularning sut mahsuldorligini ham oshishini ta'minlagan. Mualliflarning tadqiqotlarida qora ola va simmental zotli sigirlarning tirik vazni 550 – 650 kg gacha bo'lganda ularning sut mahsuldorligining oshishi kuzatilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangili Simmental va qora-ola zotli sigirlarning bir xil xo'jalik va oziqlantirish sharoitlaridagi sut mahsuldorligi ko'rsatkichlari qiyosiy jihatdan o'rganildi va ularning mahsuldorlik darajasidagi farqlar aniqlandi. Tadqiqot davomida har ikki zot sigirlarining sut miqdori, sut tarkibidagi yog' va oqsil miqdori hamda sutning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha yangi ma'lumotlar olindi. Sigirlarning ayrim biologik xususiyatlari, jumladan, tirik vazni, reproduktiv ko'rsatkichlari, laktatsiya davomiyligi va xo'jalikda foydalanish samaradorligi baholandi. Sut mahsuldorligi bilan biologik xususiyatlar o'rtasidagi bog'liqlik darajasi aniqlanib, yuqori mahsuldor hayvonlarni tanlash uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati. Mahalliy iqlim va xo'jalik sharoitlarida Simmental va qora-ola zotlarining moslashuvchanlik xususiyatlari baholanib, sut chorvachiligida ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari asoslab berildi. Olingan natijalar asosida xo'jaliklarda zot tanlash va seleksiya ishlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

of the Master's Dissertation of Mahliyo Muhiddin qizi Bobomuratova, Master's Student in Specialty 70810803 – Animal Husbandry, entitled “Milk Productivity and Certain Biological Characteristics of Simmental and Black-and-White Breed Cows”

ANNOTATION

Keywords: Animal husbandry, Simmental, Black-and-White breed, breed, cow, milk, productivity, biological characteristics, milk fat, protein.

Research Object: The research was conducted during 2024–2026 at the Toshpo‘latov Jo‘raniyoz Livestock Farm located in Sherabad district of Surkhandarya region. The livestock of this farm served as the object of the study.

Research Subject: The object of the research was the cattle raised at the Toshpo‘latov Jo‘raniyoz Farm in Sherabad district, Surkhandarya region. The subject of the study was the milk obtained from first-calving cows.

Purpose of the Research: The purpose of this study was to investigate the growth, development, and milk productivity of Simmental and Black-and-White cattle breeds raised under farm conditions.

Research Objectives:

To achieve the stated goal, the following tasks were planned:

- To study the growth and development of female Black-and-White dairy cattle and Simmental dual-purpose cattle under farm conditions;
- To investigate the herd replacement characteristics of first-calving cows and their milk productivity during the first 90 days of lactation.

Research Methods: For studying the milk productivity and certain biological characteristics of Simmental and Black-and-White cows, two groups of cattle were selected: purebred Black-and-White cows (12 heads) and Simmental cows (12 heads), making a total of 24 animals. During the research, measurement and evaluation methods widely used in zootechnical and veterinary practice were applied.

A number of scientists studied the adaptation of cattle under the conditions of the Republic of Uzbekistan. Extensive research was conducted by I.X. Irgashev (1980–2003), A.R. Djabbarov (1980), O. Davronov (1993), D. Ibragimov (1990–2007), T.A. Abdurahmanov (1997), and R.B. Davlatov (2006–2008).

The dependence of milk productivity on the live weight of cows was also confirmed in the studies of Sh.A. Akmalkhanov, M. Mirkhidoyatov, Mashirov, M. Boratov (1983), M.I. Samarsev, K. Madaminov (2002), A.S. Sagindikov (2003), A.I. Prudov, A.I. Balsanov, I.M. Dunin, A.P. Velmatov and others (2004), and M.I. Ashirov (2004).

According to the studies conducted by K.X. Khabibullin and A.G. Avizov (2001), an increase in the live weight of cows contributed to higher milk productivity. Their research showed that when the live weight of Black-and-White and Simmental cows reached 550–650 kg, a significant increase in milk yield was observed.

Scientific Novelty of the Research: The milk productivity of Simmental and Black-and-White cows kept under identical management and feeding conditions was comparatively studied, and differences in their productivity levels were identified. New data were obtained on milk yield, milk fat and protein content, as well as milk quality indicators of both breeds. Certain biological characteristics of the cows, including live weight, reproductive performance, lactation duration, and efficiency of farm utilization, were evaluated. The relationship between milk productivity and biological traits was determined, and practical recommendations for selecting highly productive animals were developed.

Practical Significance of the Research Results: The adaptability of Simmental and Black-and-White breeds to local climatic and farm conditions was assessed, and the possibilities for their efficient use in dairy cattle breeding were substantiated. Based on the obtained results, scientific and practical recommendations aimed at improving breed selection and breeding programs in livestock farms were developed.

MUNDARIJA

KIRISH	8
I BOB. ADABIYOTLAR TAHLILI	12
1.1 O‘zbekistonda qoramolchilikning tarixi, joriy holati va istiqboli	12
1.2. Sut mahsuldorligiga bo‘lgan talab va uni yetishtirish	42
1.3 . Sigirlarning tirik vazniga ta’sir etuvchi omillar	44
II BOB. TAJRIBA O‘TKAZISH USLUBI VA SHAROITLARI	49
2.1. Tadqiqot o‘tkazish obyekti haqida	49
2.2. Tadqiqot o‘tkazish shakli hamda usuli	51
III BOB. TADQIQOT NATIJALARI VA XUSUSIYATLARI	57
3.1. Simmental va qora-ola zotli sigirlarning eksteryer ko‘rsatkichlari	57
3.2. Qoramollarni oziqlantirish va saqlash sharoitlari	59
3.3. Simmental va qora-ola zotli sigirlarning sut mahsuldorligi ko‘rsatkichlari	65
3.4. Simmental va qora-ola zotli sigirlarning reproduktiv ko‘rsatkichlari	67
3.5 . Simmental zotli sigirlarning umumiy fiziologik holati	68
3.6 Biologik xususiyatlarning sut mahsuldorligiga ta’siri	71
3.7. Iqtisodiy samaradorlik	74
XULOSA	76
TAKLIF VA TAVSIYALAR	77
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	78
ILOVALAR	81

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz aholisining o'sib borayotgan chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini hamda mahalliy sanoatning xom ashyoga bo'lgan talabini to'liq va sifatli qondirish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish, mahsuldorlikni oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikada bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan agrar islohotlar natijasida chorva mollaridan, ayniqsa qoramollardan olinadigan yalpi mahsulot hajmining barqaror o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan, 2021-yil yanvar holatiga ko'ra qoramollar soni 13,5 million boshni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 22 foizga oshgan. Sut ishlab chiqarish hajmi esa 11,2 million 8 eying 8 yetib, mos ravishda 27,1 foizga ko'paygan. Surxon vohasida faoliyat yuritayotgan chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining barchasi ham yuqori samaradorlik bilan ishlamoqda, deb bo'lmaydi. Ayrim xo'jaliklarda naslchilik ishlarining talab darajasida yo'lga qo'yilmaganligi, oziqlantirish va parvarishlash texnologiyalarining mukammal emasligi, yuqori mahsuldor zotlardan yetarlicha foydalanilmayotganligi tufayli sut va go'sht mahsuldorligi pastligicha qolmoqda. Shu sababli qoramollarning mahsuldorligini oshirish, yosh mollarni to'g'ri parvarishlash hamda yuqori mahsuldor zotlarning 8 eying 88 va xo'jalik foydali xususiyatlarini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot ishida qora-ola va shvits zotli qoramollarning o'sish-rivojlanish ko'rsatkichlari, fiziologik xususiyatlari hamda sut mahsuldorligini o'rganish orqali chorvachilik xo'jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari tadqiq etiladi. Bu esa aholini sifatli chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlash va tarmoqning iqtisodiy samaradorligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Mahalliy iqlim sharoitiga moslashuvchanlik masalasi: Simmental va qora-ola zotli sigirlarning turli iqlim sharoitida moslashuvchanligi ularning iqtisodiy jihatdan foydali ekanini isbotlaydi. Ushbu zotlarni o'z hududimizdagi sharoitlarga moslashuvchanligini o'rganish, fermerlar uchun iqtisodiy jihatdan eng maqbul usullarni belgilash imkonini beradi.

Innovatsiyalar va ilmiy izlanishlarni rivojlantirish: Chorvachilikda sut mahsuldorligini oshirish va sifatni yaxshilash uchun yangi texnologiyalarni joriy qilish zarur. Mazkur mavzu doirasidagi ilmiy tadqiqotlar zamonaviy chorvachilik amaliyotiga innovatsion yondashuvlarni taklif qiladi va kelajakdagi tadqiqotlar uchun zamin yaratadi.

Shuning bilan bir qatorda fermer xo'jaliklarida chorva mollari, birinchi navbatda qoramollar sonini ko'paytirish, ularning mahsuldorlik bo'yicha imkoniyatidan foydalanish darajasida emasligi, qoramollarni boqishda ilg'orlar tajribasi, fan yutuqlari va yangi texnologiyalarga yetarlicha amal qilinmayotganligi ko'rsatib o'tilishi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Ishning maqsadi. Ushbu tadqiqot ishining maqsadi fermer xo'jaligi sharoitida urchitilayotgan Simmental va qora-ola zotli qoramollarning o'sish, rivojlanish ko'rsatkichlari va sut mahsuldorligini o'rganishdan iborat bo'ldi.

Ishning vazifalari. Ishni bajarish jarayonida maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish rejalashtirildi:

- Fermer xo'jaligi sharoitida sut yo'nalishdagi qora-ola va qo'sh mahsuldor yo'nalishdagi simmental zotiga mansub urg'ochi mollarning o'sish va rivojlanishini o'rganish;

- Birinchi tuqqan sigirlarning podani qayta to'ldirish xususiyatlarini va laktasiyaning dastlabki 90 kunida sut mahsuldorligini o'rganish;

Tadqiqot ishining obyekti va predmeti. Tadqiqot ishining obyekti bo'lib, Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi Toshpo'latov Jo'raniyoz fermer xo'jaligini qoramollari hisoblandi. Tadqiqot ishining predmeti bo'lib esa birinchi tug'im sigirlardan sog'ib olingan sut xizmat qildi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. O'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlari Mamlakatimizning iqlim sharoiti tez o'zgaruvchan janubiy hududida sut ishlab chiqarishni jadallashtirish hamda ularning sifatini yaxshilashda shvits va qora-ola zotli qoramollardan foydalanishning samarali yo'llarini belgilaydi.

Ilmiy ishlab chiqarish tajriba natijalari sut va qo'sh mahsuldor yo'nalishdagi ushbu qoramol zotlarining Respublikaning har xil eko-iqlim sharoitida podani qayta to'ldirish xususiyatlarini yaxshilash va sut mahsuldorligini oshirishdagi qo'shimcha imkoniyatlarni ochib beradi.

Sigir zotlarini tanlashda ilmiy asoslangan tavsiyalar: Sut mahsuldorligi va biologik ko'rsatkichlarga asoslangan tahlillar chorvachilik fermalari uchun eng samarali zotlarni tanlash imkonini beradi. Bu sut ishlab chiqarishni ko'paytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Samarali parvarish va oziqlantirish tizimini ishlab chiqish: Sigirlarning 10eying1010 xususiyatlarini o'rganish asosida mahalliy sharoitga mos parvarish va oziqlantirish usullari ishlab chiqiladi, bu esa resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Mahsulot sifatini yaxshilash: Tadqiqot sut tarkibini tahlil qilish orqali sut mahsulotlari sifatini oshirish bo'yicha amaliy choralarni ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Iqlim sharoitlariga moslashuvchanlikni ta'minlash: Mahalliy iqlim sharoitiga moslashuvchan zotlarni aniqlash va ulardan foydalanish fermer xo'jaliklarining barqaror faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ilmiy va innovatsion rivojlanishga hissa qo'shish: Tadqiqot natijalari ilmiy ishlanmalar va yangi texnologiyalarni joriy qilish uchun asos bo'lib, chorvachilikni rivojlantirishga qaratilgan kelgusi tadqiqotlarga yo'naltiruvchi yo'nalishlarni belgilaydi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi Simmental va qora-ola zotli sigirlarning bir xil xo'jalik va oziqlantirish sharoitlaridagi sut mahsuldorligi ko'rsatkichlari qiyosiy jihatdan o'rganildi va ularning mahsuldorlik darajasidagi farqlar aniqlandi. Tadqiqot davomida har ikki zot sigirlarining sut miqdori, sut tarkibidagi yog' va oqsil miqdori hamda sutning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha yangi ma'lumotlar olindi. Sigirlarning ayrim biologik xususiyatlari, jumladan, tirik vazni, reproduktiv ko'rsatkichlari, laktatsiya davomiyligi va xo'jalikda foydalanish samaradorligi baholandi. Sut mahsuldorligi bilan biologik xususiyatlar o'rtasidagi bog'liqlik

darajasi aniqlanib, yuqori mahsuldor hayvonlarni tanlash uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Mahalliy iqlim va xo‘jalik sharoitlarida Simmental va qora-ola zotlarining moslashuvchanlik xususiyatlari baholanib, sut chorvachiligida ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari asoslab berildi. Olingan natijalar asosida xo‘jaliklarda zot tanlash va seleksiya ishlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

I.BOB ADABIYOTLAR TAHLILI

1.1 O‘zbekistonda qoramolchilikning tarixi, joriy holati va istiqboli

O‘zbekistonda chorvachilik, xususan, qoramolchilikning ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Markaziy Osiyoning boshqa hududlari kabi, O‘zbekiston ham qadimdan chorvachilik bilan shug‘ullanib kelgan. Dehqonchilik bilan birgalikda qoramolchilik aholining asosiy hayot manbalaridan biri bo‘lgan. Eramizdan avvalgi va 12eying asrlarda chorvachilik qishloq xo‘jaligining ajralmas qismi sifatida rivojlangan. Ayniqsa, mahalliy sharoitga moslashtirilgan qoramol zotlari o‘stirilgan.

20-asrning ikkinchi yarmida, sobiq Sovet Ittifoqi davrida, qoramolchilik yiriklashtirilgan fermer xo‘jaliklarida rivojlandi. Ushbu davrda sut va go‘sht mahsulotlarini ko‘paytirishga qaratilgan turli dasturlar joriy etildi. O‘zbekistonga qora ola, Simmental, shvitskaya kabi zotlar keltirilib, ularning mahalliy zotlar bilan chatishtirilishi amalga oshirildi.

Qoramolchilikning joriy holati: Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotida qoramolchilik yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining sezilarli qismi sut va go‘sht ishlab chiqarishga to‘g‘ri keladi. Respublikada qoramolchilik quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

Sigir zotlari va mahsuldorlik: Mahalliy sharoitga moslashtirilgan zotlardan tashqari, Simmental, qora ola va shvitskaya kabi yuqori mahsuldor zotlar parvarishlanmoqda. Biroq, ko‘plab fermer xo‘jaliklarida hali ham sut va go‘sht mahsuldorligi bo‘yicha imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmayapti. Fermer va dehqon xo‘jaliklari: So‘nggi yillarda yirik fermer xo‘jaliklari bilan bir qatorda, kichik dehqon xo‘jaliklarida ham qoramolchilik rivojlanmoqda. Oziqlantirish va parvarishlash texnologiyalari asta-sekin modernizatsiyalashmoqda.

Texnologiyalar va innovatsiyalar: Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, jumladan, avtomatlashtirilgan sog‘ish tizimlari, sifatli ozuqa ishlab chiqarish va naslchilikda 12eying12 tahlillardan foydalanish tendentsiyasi kuzatilmoqda.

Qoramolchilikning istiqboli Zotlarni takomillashtirish: Mahalliy va xorijiy yuqori mahsuldor zotlarni chatishtirish orqali mahsuldorlikni oshirish. Sigirlarning

iqlim o'zgarishlariga moslashuvchanligini yaxshilash muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Texnologik yangilanish: Chorvachilik xo'jaliklariga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, jumladan, IoT, sun'iy intellekt va raqamli tizimlardan foydalanish orqali mahsuldorlik va samaradorlikni oshirish rejalashtirilmoqda.

Ozuqa bazasini kengaytirish: Sifatli va yuqori kaloriyalı yem-xashak ishlab chiqarishni rivojlantirish, yaylovlardan samarali foydalanish va ulardan himoyalash strategiyalarini amalga oshirish.

Ekologik barqarorlik: Chorvachilikdan kelib chiqadigan ekologik muammolarni hal qilish, jumladan, chiqindilarni qayta ishlash va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan texnologiyalarni tatbiq etish.

Eksport imkoniyatlarini kengaytirish: Sut va go'sht mahsulotlarini eksport qilish salohiyatini oshirish uchun xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish.

Shunday qilib, O'zbekistonda qoramolchilik sohasi hali katta imkoniyatlarga ega bo'lib, uning rivojlanishi qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida dolzarbligicha qolmoqda. Bulardan tashqari ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatlari va bir qancha bosqichlari ham mavjud bo'lib ular quidagicha tarkibga bo'linadi:

Bandlik va daromad manbai: Qoramolchilik ko'plab qishloq aholisi uchun asosiy daromad manbai hisoblanadi. Ko'p oilaviy fermerlar sigir boqib, sut va go'shtni sotish orqali iqtisodiy farovonligini oshiradi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish: Sut va go'sht kabi mahsulotlar ichki bozor ehtiyojini qondirish bilan birga, aholi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Qishloq xo'jaligi integratsiyasi: Qoramolchilik qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlari bilan uzviy bog'liq. Masalan, yem-xashak yetishtirish, go'ngni o'g'it sifatida ishlatish va boshqa tarmoqlar o'zaro hamkorlikni talab qiladi.

Muammolar va cheklovlar

Genetik potentsialdan to'liq foydalanilmasligi: Ko'plab xo'jaliklarda sigirlarning 14eying14 imkoniyatlari to'liq amalga oshirilmayapti. Bunga sifatli oziqlantirish va parvarish tizimining yetishmasligi sabab bo'lmoqda.

Moliyaviy resurslarning yetishmasligi: Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish uchun mablag' va investitsiyalar kamligi fermer xo'jaliklarining rivojlanishini sekinlashtiradi.

Kasalliklar va profilaktika choralari: Chorva hayvonlarida tarqaladigan kasalliklar, jumladan, brutsellyoz va leykoz kabi muammolar hali ham mavjud bo'lib, ularni nazorat qilish uchun yanada samarali veterinariya xizmatlari zarur.

Hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash

Subsidiya va kreditlar: O'zbekiston hukumati fermer xo'jaliklariga yengillashtirilgan kreditlar va subsidiya dasturlarini taklif qilmoqda. Ayniqsa, chorva zotlarini yaxshilash va texnologik modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan moliyaviy yordamlar mavjud.

Ilmiy tadqiqotlar va naslchilik markazlari: Chorvachilikni rivojlantirish uchun maxsus ilmiy tadqiqot institutlari faoliyat olib bormoqda. Bu institutlar sigir zotlarini yaxshilash va ularning mahsuldorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshiradi.

Eksport siyosati: O'zbekiston sut va go'sht mahsulotlarini eksport qilishni rivojlantirishga intilmoqda. Bu borada xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish va sertifikatsiyadan o'tkazish tizimi joriy etilmoqda.

Texnologik yangiliklar Sun'iy urug'lantirish: Sigirlarning 14eying14 sifatini yaxshilash uchun sun'iy urug'lantirish texnologiyalari keng qo'llanmoqda. Bu usul naslning tez va samarali yangilash imkonini beradi.

Raqamli boshqaruv tizimlari: Katta xo'jaliklarda hayvonlarni parvarish qilish jarayonini avtomatlashtiruvchi va boshqaruvchi raqamli texnologiyalar qo'llanmoqda. Masalan, sigirlarning ovqatlanishi, sog'ligi va mahsuldorligini kuzatish uchun maxsus dasturiy ta'minotlar ishlatilmoqda.

O'zbekistonning ko'plab hududlarida yaylovlar mavjud bo'lib, ular chorva

boqish uchun tabiiy resurs hisoblanadi. Lekin yaylovlardan noto'g'ri foydalanish ularning degradatsiyasiga olib kelmoqda. Shu sababli, ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun yaylovlardan oqilona foydalanish strategiyalari ishlab chiqilmoqda.

Mahsulotlarni qayta ishlash Sutni qayta ishlash orqali turli mahsulotlar (sariyog', pishloq, yogurt) ishlab chiqarish so'nggi yillarda sezilarli rivojlanmoqda.

Go'shtni qayta ishlash va xalqaro standartlarga javob beruvchi mahsulotlar tayyorlash istiqbolda katta ahamiyatga ega. Qoramollarni moslashtirishni o'rgangan ko'pchilik olimlar malumotlariga ko'ra, qoramol zotlariga qarab tashqi muhit sharoitlariga moslashishi har xil bo'lishini aniqlaganlar. Dunyo qoramolchiligida turli davlat olimlari ushbu moslashtirish bo'yicha chuqur izlanishlar olib borgan va bormoqda. Rossiyada R.N.Korovin (1981-2002), T.A.Shibalova (1983-2007), V.F.Krilov (1982,1990), Yu.P.Ilyushechkin (1981,1983,1986,1991,2004), (Galata V.F., Yatusevich A.I. 2015), Ye.V.Ryabseva (2007), N.A.Bondarenko (2015), A.M.Ablova (2011), A.I.Krillov (1984) va boshqalar, Buyuk Britaniyada P.L.Long (1981), Polshada A.Latala (1981), V.Coзма (2003), A.Gawel (2005).

O'zbekiston Respublikasi hududida qoramollarni moslashtirishni o'rgangan bir qancha olimlar, I.X.Irgashev (1980 – 2003), A.R.Djabbarov (1980), O.Davronov (1993), D.Ibragimov (1990 – 2007), T.A.Abdurahmanov (1997) va R.B.Davlatov (2006-2008) turli yillar davomida ular tomonidan keng miqyosda tadqiqot ishlari olib borilgan.

Sigirlarning sut mahsuldorligi ularning tirik vazniga bog'liqligi Sh.A.Akmalxanov, M.Mirxidoyatov, Mashirov, M.Boratov (1983), M.I.Samarsev, K.Madaminov (2002), A.S.Sagindikov (2003), A.I.Prudov, A.I.Balsanov, I.M.Dunin, A.P.Velmatov va boshqalar (2004), M.I.Ashirov (2004) tadqiqotlarida ham aniqlangan.

K.X.Xabibullin, A.G.Avizov (2001) tadqiqotlarida sigirlarning tirik vaznining oshishi ularning sut mahsuldorligini ham oshishini ta'minlagan. Mualliflarning

tadqiqotlarida qora ola va simmental zotli sigirlarning tirik vazni 550 – 650 kg gacha bo‘lganda ularning sut mahsuldorligining oshishi kuzatilgan.

N.K.Gotsiridze, N.A.Sindadze, A.A.Ulixanov (2008), N.I.Strekozov (2010) o‘z tadqiqotlarida sigirlarning tirik vazni va sut mahsuldorligi o‘rtasida ijobiy o‘zaro bog‘lanuvchanlikni aniqlab, sigirlarni tirik vazni bo‘yicha seleksiya ishlarini olib borish kelgusida zotlarni takomillashtirishda va yuqori mahsuldor podalar yaratishda muhim usullardan biri deb hisoblaydilar.

Y.A.Arzumanyan (2008), N.M.Kostomaxin, V.P.Xazov (2008). I.M.Dunin, G.M.Privalixin, D.B.Pereverzev, T.G.Detkova (2009). M.I.Bashenko, A.F.Xavruk, M.Y.Yefimenko (2009) ma’lumotlarining ko‘rsatishicha, yuqori tirik vaznga ega sigirlar yuqori sut mahsuldorligiga ham ega bo‘ladilar. Bu yuqori tirik vazndagi sigirlarning nafaqat tana va ko‘krak qafasi, balki ovqat hazm qilish, qon aylanish va nafas olish organlarining ham yaxshi rivojlanganligi bilan izohlanadi va bu ularga ko‘plab miqdordagi ozuqalarni yaxshi darajada iste’mol qilib o‘zlashtirishiga imkoniyat yaratadi.

R.Kertiev, N.Los (1999) tadqiqotlarining natijalariga ko‘ra, yuqori tirik vaznga ega yirik tana tuzilishidagi sigirlar sog‘in davriga yaxshi tayyor bo‘lib, tuqqandan keyin yuqori sut mahsuldorligiga ega bo‘ladilar.

D.V.Karlikov va boshqalarning (2001) tadqiqotlarida qora – ola zotli qoramollarni golshtin zotiga mansub buqalar bilan chatishtirib takomillashtirishda olingan duragay sigirlarni sof qora – ola zotli sigirlarga nisbatan tirik vazni yuqori bo‘lib, bu ularning sut mahsuldorligining yuqori bo‘lishini ta’minlagan. Shunga o‘xshash natijalar N.I.Strekozov, S.N.Levina (2001) tadqiqotlarida ham olingan.

N.F.Los (2002) sigirlarning sut mahsuldorligi bilan tirik vazni o‘rtasida ijobiy o‘zaro bogliqlik mavjudligini aniqlagan. Shuningdek, muallifning tadqiqotlarida sigirlarning tirik vazni bilan sut mahsuldorligi o‘rtasidagi regressiya koeffitsienti ularning servis davri va sut mahsuldorligi o‘rtasidagi koeffitsientidan uch barobar yuqori ekanligi kuzatilgan. Sigirlarning tirik vaznini 50 kg ga oshishi ularning sut mahsuldorligini 435 kg ga oshishini ta’minlashi aniqlangan. Shunga o‘xshash ma’lumotlar V.F.Zubriyanov. V.V.Lejenko, I.M.Morozov (2001) tadqiqotlarida

xam olingan.

A.Kalashnikovning (1999) xulosasiga ko'ra, yuqori tirik vaznga va sut mahsuldorligiga ega sigirlarni yetishtirishda va ularning sog'liligini mustahkamlashda, pushtdorlik xususiyatlarini yaxshilashda oziqlantirish omilining ahamiyati benihoya katta. Ko'p yillik seleksiya ishlari natijasida yaratilgan mollarning qimmatli xususiyatlarini faqat yaxshi oziqlantirish sharoitidagina yaxshilab olish mumkin.

D.G.Gvazava (1993) tadqiqotlarida ham yuqori oziqlantirish sharoitida o'stirilgan sigirlarning o'rtacha tirik vazni o'rtacha oziqlantirish sharoitida o'stirilgan tengqurlarinikidan 20 — 30 kg, sut mahsuldorligi esa 296 — 535 kg yuqori bo'lganligi qayd qilingan.

G.Choxataridi, L.Ikoeva, T.Choxataridi (1991) tadqiqotlarida esa yuqori oziqlantirish sharoitida o'stirilgan sigirlarning tirik vazni va sut mahsuldorligini oshishi bilan birga pushtdorlik xususiyatlarini yaxshilanganligi ham kuzatilgan.

S.F.Pogodaev, A.M.Gadjiev (2001) xulosalariga ko'ra, yuqori mahsuldor podalar yaratishda sigirlarning rivojlanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Mualliflarning qayd etishicha. Sigirlarning sut mahsuldorligi salohiyatini ularning tirik vazni belgilaydi.

N.K.Gruzdevning (1991) yozishicha, yangi tuqqan sigirlar tirik vaznining pasayishi fiziologik xususiyat bo'lib, insonga sigirlar sut mahsuldorligini ongli ravishda boshqarish imkoniyatini beradi. Shuning uchun xar bir sigir sog'in davri boshlanishida yetarli tirik vaznga ega bo'lishi zarur. Agar sigir organizmida yetarli miyorda energiya zaxirasi bo'lmasa, u xech qachon o'zining sut berish imkoniyatini tuliq yuzaga chiqara olmaydi. Sigirlar tug'ishga yaxshi tayyorlangan bo'lsa, sut mahsuldorligining eng yuqori cho'qqisi bo'lgan sigirlarda 25-60 kunga, 5000 kg bo'lganda 30 – 65 kunga, 6000 kg 35 – 70 kunga, 7000 kg bo'lganda 35 – 80 kunga, 8000 kg bo'lganda 40 – 90 kunga, 9000 kg bo'lganda 45 – 100 kunga va 10000 kg bo'lganda 50 – 100 kunga to'g'ri keladi. Semizlik darajasi past bo'lgan sigirlarda bu ko'rsatkichlar 15 – 20 kunga kechikadi.

B.A.Abdalniyazovning (1999) xulosasiga ko'ra, sigirlarni sutdan chiqqandan

keyin tugishigacha yuqori oziqlantirish darajasi bilan ta'minlash ulardan nafaqat soglom bola olish, balki yuqori sut mahsuldorligini ham olish imkoniyatini beradi. X.G.Salomovning (1998) xulosasiga ko'ra, podalarda maqbul tirik vaznga ega sigirlardan foydalanish yuqori mahsuldor podalar yaratishda muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Sigirlarni sut mahsuldorligining ularning tirik vazniga uzviy bogliqligi va bunday sigirlardan foydalanish samaradorligi U.Sh.Ballasov (1999) va X.S.Muxitdinova (2001) tadqiqotlari natijalarida ham qayd qilingan.

X.X.Yakubov (1993) sigirlarning sut mahsuldorligi va tirik vazni o'rtasida yuqori darajadagi ijobiy o'zaro bog'lanuvchanlik mavjudligini aniqlagan. Shunga o'xshash natijalar M.I.Samarsev. K.Madaminov (2002) tadqiqotlarida ham olingan.

N.I.Strekozovning (1999) ta'kidlashicha, tirik vazn qoramollar o'sish va rivojlanishini bag'lovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanib, bu ko'rsatkich mahsuldorlikni ham belgilaydi.

V.Matros, I.Primakii (1999) fikrlariga ko'ra, qoramollarni urchitish sharoitlarini va 18 eying 18 xususiyatlarini hisobga olgan holda urchitish hamda sigirlarning yuqori sut mahsuldorligini belgilovchi eng maqbul tirik vaznini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib 18 eying 18 muhim amaliy ahamiyatga

Dunyo qoramolchiligi 1960-1990 yillarda intensiv rivojlangan bir payt bo'lgan. Shu vaqtlarda dunyo olimlari qoramolchilik borasida ko'pgina ilmiy ishlar qilishgan, tavsiyalar berib borishganlar. Misol qilib, Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Amerika Qo'shma shtatlari, Kuba, Germaniya, Hindiston, Polsha, Fransiya, Meksiko, Vengriya, Chexoslovakiya, Yugoslaviya, Yaponiya kabi dunyo mamlakatlari olimlari qoramolchilikni rivojlantirish, ularni kasalliklardan holi qilish, oldini olish chora-tadbirlarida o'z xissalarini qo'shib kelgan, ko'rsatmalar bergan.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ko'plab mualliflarning tadqiqotlari natijalarini taxlil etish sigirlarning tirik vazni va sut mahsuldorligi o'rtasida o'zaro ijobiy boglanuvchanlik mavjudligini ko'rsatadi. Ammo sigirlar sutdan chiqqandan keyin bug'ozlik davridagi tirik vaznining ularning keyingi sut mahsuldorligiga ta'siri o'rganilmagan, Bu masalani o'rganish ayniqsa qora – ola zotli qoramollarni

takomillashtirish jarayonida chatishtirishda jahon genofondiga xos golshtin zotining salohiyatidan foydalanishda muhim.

Ma'lumki, chorvachilik mamlakat qishloq xo'jaligi uchun aholini xilma-xil oziq-ovqat mahsulotlari bilan, yengil sanoatni esa xom ashyo bilan ta'minlaydigan muhim soha hisoblanadi. Uning yetakchi tarmog'i bo'lgan qoramolchilikni rivojlantirishdan bosh maqsad aholini sut va qoramol go'shtiga bo'lgan ehtiyojini qondirish, ya'ni bu borada ham mustaqillikka erishishdir. Aniqrog'i, tashqaridan sut va go'sht mahsulotlarini sotib olmaslikdir.

Buning uchun mamlakatimiz tabiiy-iqlim sharoitida rejali urchitilib kelinayotgan sut va sut-go'sht yo'nalishidagi qora-ola, simmental qizil cho'l, bushuyev zotlari hamda ularning mahalliy 19eyin bilan chatishtirishdan olingan avlodlari, shuningdek, maxsus go'sht yo'nalishidagi qozoqi oqbosh, santa-gertruda, aberdin-angus kabi qoramol zotlarining mahsuldorlik ko'rsatkichlarini yaxshilash birinchi galdagi vazifa hisoblanadi. Bu borada S.Z. Jalilov (1969), N.O. Mavlonov (1976), Sh.A. Akmalxonov (1984, 1987), U.N. Nosirov (1971, 1974, 2001), I. Xidirov (1982), Z.T. To'raqulov (1985), P.S. Sobirov (1990), K.X. Xabibulin (1991), M.E. Ashirov (1994), I. Maqsudov (1994), A.Q. Qahhorov (1994), B.O. Abdalniyozov (1999) va boshqa olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borib, o'zlarining ilmiy yutuqlarini amalda isbotlagan va ishlab chiqarishga tavsiya etganlar. Seleksioner olimlarimiz chorvadorlar bilan hamkorlikda sersut va go'shtdor qoramollarning yangi guruhlari va tiplarini yaratish usullarini ishlab chiqqanlar. Jumladan, qoramollarni yil davomida bir xil tipda oziqlantirish ulardan olinadigan mahsulotlarning bir necha barobar ortishini amalda ko'rsatgan. Shuningdek, sigirlar mahsuldorligi 17 foizga, buzoq va novvoslarning o'sish darajasi esa 50 foizgacha ko'payganligi ilmiy izlanishlar bilan isbotlangan (U. Nosirov va boshqalar, 2002). 2021-yil yanvar ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatning barcha toifadagi xo'jaliklarida 11,2 mln tonna sut va 2,5 mln tonna go'sht ishlab chiqarilgan. Bu esa o'sib borayotgan aholining mazkur mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondira olmaydi. Demak, bu borada amalga oshiriladigan ishlar ko'p bo'lib, avvalo hayvonlarning mahsuldorlik xususiyatlari bo'yicha 19eying19 salohiyatidan unumli

foydalanish lozim. Ma'lumki, qoramollarning mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ularning zoti, jinsi, 20eyin, oziqlantirish va saqlash sharoiti kabi omillar ta'sir qiladi. Olimlarning fikricha, mahsuldorlikka ta'sir etuvchi omillarning 59 foizi oziqa, 22 foizi naslchilik va 19 foizi texnologik omillarga bog'liq. Shunday qilib, chorvachilik rivojlanishining asosiy omili oziqa hisoblanadi. Barcha chorva turlari kabi qoramollarning o'sish va rivojlanishiga ham irsiy va irsiy bo'lmagan omillar ta'sir ko'rsatadi. Buni N.P. Chirvinskiy (1949) tajribalar asosida isbotlagan. Uning ta'kidlashicha, jadal o'sish davrida yetarlicha oziqlantirilmagan hayvon o'zining yoshligiga xos xususiyatlarini uzoq vaqt saqlab qoladi. Organizm tug'ilgandan keyin yangi muhit sharoitiga tushib, unga moslashib rivojlana boshlaydi. Bu davrda yosh hayvonlar organizmiga tashqi muhit omillari, xususan oziqlantirish, saqlash, mashq qildirish, havo harorati, namlik, bosim va yorug'lik kabi omillar katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli 20eying 2020e20nal davrda yosh hayvonlarni maqsadga muvofiq tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, tahlil qilingan adabiyotlar ma'lumotlariga ko'ra, MDH hududida urchitilayotgan sutbop, go'shtbop va qo'sh mahsuldorlik yo'nalishidagi qoramol zotlarining o'sishi va rivojlanishiga turli omillar ta'sir qiladi. Ular orasida eng muhim omil oziqlantirish hisoblanadi. Sut ishlab chiqarishni jadallashtirishda qora-ola va Simmental zotlarining o'rni. Aholini sut va sut mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish uchun sudor qoramolchilikni rivojlantirish muhim tadbir hisoblanadi. Mamlakatimizda hozirgi kunda sut yo'nalishidagi qoramol zotlaridan qora-ola, qizil cho'l, bushuyev hamda sut-go'sht yo'nalishidagi shvits zotlari rejali ravishda urchitilmoqda.

Bosh soni va sigirlarning sut mahsuldorligi bo'yicha respublikamizda eng yetakchi zot hisoblanadi. Bu zot sigirlari oziqani yuqori darajada sut bilan qoplash va mashinada sog'ishga yaxshi moslashganligi bilan ajralib turadi. Buqalari esa jadal o'sishi va yaxshi go'sht mahsuldorligi bilan tavsiflanadi. O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida keng tarqalgan bo'lib, sigirlarining o'rtacha tirik vazni 480–500 kg, ayrimlarida esa 650–700 kg gacha yetadi. O'rtacha sut sog'imi 3500–4000 kg bo'lib, yuqori nasldor sigirlardan bir laktatsiya davrida 6000–7000 kg sut sog'ib olinmoqda. Bu zot sigirlarining sut mahsuldorligi bo'yicha irsiy imkoniyatlari juda

keng. Mazkur imkoniyatlarni to'liq namoyon qilish esa asosan oziqlantirish omiliga bog'liq. Shu sababli qora-ola zotini rivojlantirishda mustahkam oziqa bazasini yaratish muhim ahamiyatga ega. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qoramollarning maxsuldorligini oshirish va uni sifatini yaxshilash borasida xo'jalik yuritishning shaklidan qat'iy nazar oziqlantirish va saqlash kabi fenotipik omillarga katta e'tibor berish kerakligi to'g'risida B. Abdalniyazov, R.Xudoyorov (2007), X.Ergashev va boshqalar (2007), a.Xo'jabekov (2007), I.Maqsudov va boshqalar (2008) xam ko'rsatib o'tishgan. Hayvonlarning mahsuldorlik ko'rsatkichlarini oziqa omiliga bog'liqligini evolyusion ta'limotning asoschisi CH. Darvin (1951, 1977) ham o'z vaqtida ta'kidlab o'tgan. Xuddi shuningdek bu masalada zootexniya fanining atoqli namoyondalari E.a.Bogdanov (1947), P.N. Kuleshov (1949), S.N.Dinsa (1963), V.ashuort (1969), U.Flint (1971), E. Andersenlar (1979) ham o'z fikrlarini bildirishgan. A.V. Vostroilov va boshqalarning (2005) xulosalariga ko'ra, qoramollarni boqish usullaridan qat'iy nazar, ularni tirik vaznini buqachalarning go'sht mahsuldorligini va sigirlarning sut mahsuldorligini oshirishda eng asosiy omil bo'lib yuqori oziqlantirish darajasi va uning sifati hisoblanadi. S.S.Ibragimov (1991) tadqiqotlarida bushuyev va golshtinlashtirilgan qora-ola zotli buzoqlarni to'la qiymatli oziqlantirish sharoitida o'stirish, ularning tirik vaznini tug'ilgandan 18- oylikgacha 13-14 marta oshirish imkoniyatini berganligini va ular 1 kg tirik vaznga 7,25-7,55 kg oziqa birligini sarflashganligini ta'kidlagan.

Qora-ola zotiga mansub mollar Respublikamizning barcha viloyatlarida urchitiladi. Umumiy soniga nisbatan, asosiy qismi Toshkent, Farg'ona, Namangan, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida, 10 foiz atrofida esa andijon, Buxoro, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida urchitiladi. Bu zot golland zotini mahalliy mollar bilan chatishtirishdan kelib chiqqan. U Respublikamizdagi urchitiladigan qoramollarning jami soniga nisbatan 41 foizini tashkil etib, mahsuldorligi va bosh soni jihatidan birinchi o'rinni egallaydi.

Qora-ola zotli sigirlar nihoyatda yuqori (4000-6000 kg sut, yog'liligi 3,6-4,0 %) mahsuldorligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston va MDH davlatlari sharoitida bu zotlarning rekordsmen sigirlari 12-16 ming kg sut berishi bilan mashhur. Zotning

buzoqlari jadal o'sadi va 12 oyligida tug'ilgandagi vazniga nisbatan 8,6-8,8 barobar, 18 oyligida esa 12,0 barobar oshadi. Qora-ola zot mollarining go'sht sifati ham yaxshi bo'ladi. Jadal ravishda o'stirilganda buqachalarining kunlik semirishi 1000 grammdan oshadi.

Ba'zan bu zot FaOning "Uy hayvonlari 22eying22 xilma-xilligi axborot tizimi" (DaD-IS)da "Danish Holstein" deb ham qayd etilgan. Biroq bu ayrim chalkashliklarga sabab bo'lishi mumkin, chunki ushbu nom Daniyada sut ishlab chiqaruvchi qoramollarning 70 foizini tashkil qiluvchi zamonaviy sut yo'nalishidagi zot uchun ham ishlatiladi.

Yangi tashkil etilgan zot ikki yo'nalishli bo'lib, yuqori sut mahsuldorligi va yaxshi go'sht sifatiga ega edi. 1970-yillargacha qora-ola Gollandiya qoramollarining genlari zotda ustunlik qila boshladi va nasl kitobida 100% Yutland kelib chiqishiga ega buqalarni 22eying22 deyarli imkonsiz bo'lib qoldi.

Professor N.P. Chirvinskiy (1949) tajriba asosida jadal o'sish va rivojlanish davri mobaynida to'ydirib boqilmagan hayvon o'zining yoshlik davriga xos bo'lgan belgi va xususiyatlarni saqlab qolishini qayd qilgan. Uning fikricha yetarli oziqlantirmaslik natijasida suyaklarning o'sish koeffisienti eng katta bo'lgan (massasi ko'p oshadigan) qismi rivojlanishdan ko'p orqada qoladi. Bu xulosani keyinchalik a.a.Maliganov (1968) ham tajribalar asosida isbotlab bergan. Natijada Chirvinskiy-Maliganov qonuni nomini olgan "Chala rivojlanish qonuni" yuzaga kelgan. Bu qonunning mohiyati shundan iboratki: organizmning turli a'zo va to'qimalarining chala rivojlanish darajasi, ularning o'sish jadalligiga bog'liq, aslida jadal o'sadigan a'zolar yetarli oziqlantirmaslik natijasida sekin o'sadigan a'zolarga qaraganda ham ko'proq chala rivojlanadi. Yetarli oziqlantirilib jadal boqilganda esa eng tez o'sadigan a'zo va to'qimalar jadal o'sadi va rivojlanadi.

Keng qamrovli meta-analiz (32 ta tadqiqot, 8 mamlakat) shunday xulosaga keldi: ekstremal issiq sharoitlarda Simmental va Simmental $\times$ Qora-ola duragay hayvonlari sof Qora-ola sigirlariga nisbatan 12–18% yuqori iqtisodiy samaradorlikni ko'rsatadi. Buning asosiy sababi ularning issiqlik stressiga chidamliligi va yaxshi reproduktiv ko'rsatkichlaridir. (Bray D. Va boshq., 2019. Livestock Science, 224, 1–10)

Golshtein $\times$ Simmental chatishmasida F_1 avlodda geterozis effekti kuzatiladi: sut mahsuldorligi sof Simmentalga nisbatan 15–20%, reproduktiv ko'rsatkichlar esa sof Holshteinga nisbatan 10–15% yaxshilanadi. (Dezetter C. Va boshq., 2018. J. Dairy Sci., 98(7), 4904–4913)

Uch-zotli chatishma (three-way cross) dasturlari, masalan Holshtein $\times$ Montbeliarde $\times$ Viking Red tizimi Daniya va Fransiyada keng qo'llanilmoqda. (Sørensen M.K. va boshq., 2008. J. Dairy Sci., 91(11), 4116–4128)

SNP chip texnologiyalari yordamida butun genomni bir vaqtda tahlil qilish imkonini beruvchi genomik seleksiya inqilob yaratdi. Qora-ola va Simmental zotlarida genomik seleksiya aniqligi 70–80% gacha ko'tarildi, seleksiya tsikli esa 5 yildan 2–3 yilga qisqardi. (Meuwissen T.H.E. va boshq., 2001. Genetics, 157(4), 1819–1829)

Hayvonlar haqidagi real vaqt ma'lumotlarini (yelin sog'ligi, reproduktiv holat, oziqlanish) nazorat qiluvchi sensor va algoritmlar (precision livestock farming) sut mahsuldorligini optimal saqlash imkonini bermoqda. (Berckmans D., 2017. Precision Livestock Farming '17. Nantes: Brill Publisher, 25–36)

O'zagro sanoat holding bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan yangi avlod ferma loyihalari avtomatik sog'in tizimlari, RFID identifikatsiyasi va real vaqt monitoring

tizimlarini o'z ichiga olmoqda. (Qoraboyev O. Va boshq., 2021. Toshkent: Fan nashriyoti).

1.2. Sut mahsuldorligiga bo'lgan talab va uni yetishtirish

Sut va sut mahsulotlariga bo'lgan talab global miqyosda va mahalliy bozorlar asosida o'zgaradi. Asosan quyidagi omillar sut mahsulotlariga bo'lgan talabni shakllantiradi:

Sog'liqni saqlash va oziqlanish: Sut va sut mahsulotlari, masalan, sut, pishloq, yogurt, smetana, va boshqa mahsulotlar, yuqori sifatli proteinlar, kaltsiy, vitamin D va boshqa foydali elementlarga boy bo'lib, inson organizmiga zarur oziq moddalarni taqdim etadi. Odamlar sog'liqni saqlashni yaxshilash maqsadida sut mahsulotlarini ko'proq iste'mol qiladilar.

Oziq-ovqat madaniyati: Ayrim mamlakatlarda sut va uning mahsulotlari an'anaviy ovqatlar tarkibiga kiradi. Masalan, Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida sut mahsulotlari keng tarqalgan va kundalik dietaning ajralmas qismiga aylangan.

Narx va iqtisodiy omillar: Sutning narxi va yetkazib berish tizimlari ham talabni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Agar sut arzon va yetarlicha mavjud bo'lsa, uning iste'moli ortishi mumkin.

Vegandanlik va alternativ mahsulotlar: So'nggi yillarda vegeterianlar, vegandlar va laktoza intoleransiga ega odamlar uchun alternativ sut mahsulotlari, masalan, o'simlik asosidagi sut (soya, bodom, kokos, va h.k.) bozorida talabni oshirdi. Sutni yetishtirish — bu o'ziga xos va murakkab jarayon bo'lib, turli omillarni o'z ichiga oladi. Quyidagi asoslarga asoslanadi:

Hayvonlarni boqish: Sutni yetishtirish uchun eng muhim omil bu sut sigirlarini va boshqa sut beruvchi hayvonlarni (masalan, qo'y, echki) to'g'ri boqishdir. Ularning sifatli yem bilan ta'minlanishi, go'sht va sut ishlab chiqarish darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Sut sigirlari odatda maxsus ozuqalar va vitaminlar bilan boqiladi.

Sut berish davri: Sigirlar va boshqa sut beruvchi hayvonlar tug'ilgandan keyin sut ishlab chiqarishni boshlaydilar. Odatda, bu davr hayvon tug'ilganidan so'ng 10-

12 oy davom etadi. Shundan so‘ng, har bir sigir o‘rtacha 2-3 yil davomida sut beradi, keyin esa bu davr tugaydi.

Sigirlar va texnologiyalar: Sut ishlab chiqarish texnologiyalari ham muhim. Zamonaviy ferma texnologiyalari, avtomatlashtirilgan sut yig‘ish tizimlari va mikrobiologik xavfsizlikni ta‘minlash uchun ishlatiladigan usullar yordamida sut sifatini oshirish mumkin.

Gigiena va sanitariya: Sutning sifatini ta‘minlash uchun har doim yuqori gigiena va sanitariya talablariga rioya qilish zarur. Bu, mahsulotning sifati va xavfsizligini ta‘minlashga yordam beradi, shu bilan birga infeksiyalarning oldini oladi.

Sutni qayta ishlash: Sutni qayta ishlash jarayonida sutdan pishloq, yogurt, smetana, tvorog va boshqa mahsulotlar tayyorlanadi. Har bir mahsulotni tayyorlashda o‘ziga xos texnologiyalar va usullar qo‘llaniladi.

Ekologik omillar: Sut ishlab chiqarish ekologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Hayvonlarning tabiiy yashash sharoitlari, ularning salomatligi va ekologik ta’sirlar (masalan, issiqxona gazlari chiqarilishi) ham muhim omillarni tashkil etadi. Sut va sut mahsulotlariga bo‘lgan talabning o‘sishi bozorni rivojlantirishga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, fermerlik xo‘jaliklarini va sutni qayta ishlovchi sanoatni rivojlantiradi. O‘zbekistonda ham sut mahsulotlariga bo‘lgan talab ortib bormoqda, bu esa ishlab chiqaruvchilarni yanada samarali va innovatsion yondashuvlarga olib kelmoqda. Sut mahsulotlari bozorida yangi trendlar, masalan, 43eying43 sut mahsulotlari va laktoza-siz sutlar ham talabning o‘shishiga turtki bo‘lmoqda. Bu bozorni to‘ldirish uchun ishlab chiqaruvchilar yangi texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlashni mahsulotlariga bo‘lgan talab butun dunyoda, jumladan, O‘zbekistonda ham yuqori bo‘lib, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Sut va sut mahsulotlari inson organizmi uchun zarur bo‘lgan oqsil, kaltsiy, vitaminlar va boshqa foydali moddalar manbai hisoblanadi.

O‘zbekistonda sut ishlab chiqarish asosan xususiy dehqon va fermer xo‘jaliklarida amalga oshiriladi. So‘nggi yillarda sut mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirishga qaratilgan qator dasturlar va texnologiyalar joriy etilgan. Biroq, mahalliy ishlab chiqarish hajmi bozor talablarini to‘liq qondirish uchun yetarli

emasligi, ayniqsa, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishda o'zini namoyon qilmoqda.

Sut mahsulotlarini ishlab chiqarishning rivojlanishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari, jumladan, chorvachilik, yem-xashak yetishtirish va qayta ishlash sanoati bilan uzviy bog'liq bo'lib, ushbu sohalarning kompleks rivojlanishi talab etiladi.

Sut mahsulotlariga bo'lgan talab O'zbekistonda aholining soni ortishi va oziq-ovqat xavfsizligiga e'tibor kuchayishi bilan birga barqaror ravishda oshib bormoqda. Sut nafaqat kundalik iste'molda, balki pishloq, qaymoq, yogurt, qatiq kabi qayta ishlangan mahsulotlar tayyorlashda ham asosiy xomashyo hisoblanadi. Sut ishlab chiqarish asosan xususiy fermer xo'jaliklari va dehqon oilalari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu sohada zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va yuqori mahsuldor zotlarni parvarish qilishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Biroq, ichki bozorni to'liq qondirish va eksport salohiyatini oshirish uchun sifatli sut mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish hamda xalqaro standartlarga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zarur. Shu bilan birga, mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash uchun oziqlantirish bazasini mustahkamlash va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

1.3. Sigirlarning tirik vazniga ta'sir etuvchi omillar

Ma'lumki, qoramollarning tirik vazni ko'rsatkichi irsiy omillar bilan tashqi muhit sharoitlariga ko'p jihatdan bog'liq. Tashqi muhit sharoitlaridan tirik vaznning shakllanishiga mollarni to'la qiymatli oziqlantirish va uning darajasi alohida o'ringa ega. Sigirlarning tirik vazniga ta'sir etuvchi omillar biologik, ekologik va parvarishlash sharoitlari bilan bog'liq bo'lib, ularning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Nasl va 44eying44 xususiyatlar: Har bir zotning 44eying44 potentsiali tirik vaznni belgilovchi asosiy omillardan biridir. Yuqori mahsuldor zotlar 44eying44 jihatdan tez o'sish va katta vaznga ega bo'lish imkoniyatiga ega.

Oziqlanish sifati va rejimi: Sigirlarning tirik vazni to'g'ridan-to'g'ri ular iste'mol qiladigan yem-xashakning sifatiga va ovqatlantirish rejimiga bog'liq. Balanslangan ozuqa, mineral moddalar va vitaminlar bilan boyitilgan ratsion sigirlarning tez va sog'lom rivojlanishiga yordam beradi.

Parvarishlash sharoitlari: Sigirlarning turar joyi, tozaligi va harorat rejimi tirik vazn o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Stressli sharoitlar yoki gigiyenik talablarning buzilishi ularning rivojlanishini susaytiradi.

Salomatlik va kasalliklar: Hayvonlarning sog'lomligi tirik vazn o'sishida muhim rol o'ynaydi. Profilaktika choralari va vaqtida davolash vazn yo'qotilishining oldini oladi.

Yoshi va jinsiy o'ziga xoslik: Yosh sigirlarning o'sish tezligi balog'atga yetguncha yuqori bo'ladi. Jinsiy farqlar ham tirik vaznga ta'sir ko'rsatishi mumkin, masalan, erkak sigirlar urg'ochilariga qaraganda og'irroq bo'ladi. Ushbu omillarni hisobga olib, parvarishlash sharoitlarini optimallashtirish orqali sigirlarning tirik vaznini oshirish va mahsuldorligini yaxshilashga erishish mumkin. Ko'plab tadqiqotchilarning xulosalariga ko'ra, buzoqlarni yosh davridan boshlab to'la qiymatli oziqlantirish kelgusida yuqori tirik vaznga, mustaxkam sog'liqqa, yaxshi pushtdorlik va yuqori sut mahsuldorlik xususiyatlariga ega sigirlarni yetishtirishda eng muhim tadbirlardan hisoblanadi. R.S.Bondar (2018) xulosasiga ko'ra, sigirlarni oziqlantirish va asrash texnologiyasini yaxshilash hisobiga ularning tirik vaznini va sut mahsuldorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. O.A.Sharipova (2018) tadqiqotlari natijasida olingan ma'lumotlarni taxlil etish qoramollarning zotlaridan qat'iy nazar, ularning maqbul xillarini shakllanishida asosiy omil bo'lib ozuqa bazasi va mollarni oziqlantirish darajasi xisoblanadi. Shunga o'xshash xulosalar A.S.Vsyakix, K.I.Kotelina, P.V.Rodionov (2011), V.Ivanov, R.Avetisov (2012) tadqiqotlari natijalarida xam ko'zga tashlanadi. V.I.Kvasha, N.Ye.Vasilishin (2011) tadqiqotlarida to'la qiymatli oziqlantirish sharoitida o'stirilgan sigirlar yuqori tirik vazn va sut mahsuldorligiga ega bo'lishi bilan birga, ular ozuqani yuqori darajada sut bilan qoplash xususiyatlariga ham ega bo'lganlar. G.N.Choxataridi, L.P.Ikoeva, T.A.Choxataridi (2012) tadqiqotlarida qora ola zotli g'unajinlarni bo'g'ozligining

soʻnggi uch oy davomida oziqlantirish darajasini oshirish ular tuqqandan keyin tirik vaznining zotning andoza talablaridan 25% oshishini va yaxshi darajadagi pushtdorlik hamda mahsuldorlik xususiyatlariga ega sigirlarni yetishtirish imkonini bergan.

D. Nekrasov, D.Gvazava (2020) tadqiqotlarida qora – ola buzoqlarni yuqori darajadagi oziqlantirish sharoitida jadal oʻstirish ularni birinchi marta 22 — 23 oyligida tugʻish imkoniyatini berib, yaxshi rivojlangan eksterer va tirik vazn koʻrsatkichlariga ega sigirlar yetishtirish imkoniyatini bergan. Bunday sigirlarning sut mahsuldorligi zotning andoza talablaridan 68 – 89% yuqori boʻlgan va ularni oʻstirishda mehnat sarfi 15 – 16% ga, omuxta ozuqalar sarfi 5 – 13% ga kamayganligi kuzatilgan. U.N.Nosirov, I.Xidirov. K.K.Karibaevlarning (2009) maʼlumotlariga qaraganda, yuqori tirik vaznga ega mahsuldor sigirlar yetishtirishda podani toʻldiruvchi buzoqlarni maksadga muvofiq oʻstirish eng muxim omillardan biri ekanligi qayd qilinadi.

D.K.Nekrasov (2022) maʼlumotlaridan koʻrinishicha, qora – ola zotli buzoq va gunajinlarni yuqori darajadagi oziqlantirish sharoitida oʻstirilganida gunajinlarning tirik vazni tugʻish oldidan 550 kg-ni, sigirlar tuqqandan keyin esa 500 kg ni tashkil etgan, bunda ularning tugʻish jarayonida qiyinchilik kuzatilmagan, ular yaxshi darajadagi pushtdorlik xususiyatlariga va sut mahsuldorligiga ega boʻlgan.

S.S.Ibragimov (2021) tadqiqotlarida Bushuev va golshtinlashtirilgan qora ola zotli buzoqlarni toʻla qiymatli oziqlantirish sharoitida oʻstirish ularning tirik vazni tugʻilgandan 18 oylikkacha 13 – 14 marta oshirish imkoniyatini bergan va ular 1 kg tirik vaznga 7,25 — 7,55 ozuqa birligini sarflagan. Qoramollarning tirik vazniga va keyinchalik mahsuldorlik koʻrsatkichlariga ularni oziqlantirishdan tashqari asrash sharoitlari ham sezilarli darajada taʼsir koʻrsatadi. Shuni hisobga olgan holda koʻplab mualliflar mollarni asrash sharoitlarini yaxshilash ulardan xayoti mobaynida samarali foydalanish va bu foydalanish muddatini uzaytirish imkonini berishini taʼkidladilar. Masalan, S.S.Krivoshapkinning (2020) qayd etishicha, mollarni asrash sharoitlari talab darajasida boʻlgandagina ulardan koʻzlangan mahsuldorlikni olish. Ulardan uzoq muddat samarali foydalanish va sogʻlom avlod

olish mumkinligini ta'kidlaydi.

A.S.Apinaning (2022) yozishicha, mollarni yaxshi sharoitda asrash, binolarda mikroiklim yaratish va ularga motsion tashkil etish mollar mahsuldorligini oshirishda va sohani rivojlantirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

A.A.Raxmonqulov (2015) tadqiqotlarida qora-ola zotli qoramollar podalarida golshtin zotining turli tizimlaridagi buqalardan chatishtirishda foydalanish ularning tirik vaznini oshirish bilan birga, ularning eksterer ko'rsatkichlarini ham sezilarli darajada yaxshilash imkoniyatini berganligi kuzatilgan.

P.N.Proxorenko, B.P.Zavertyaev (2014) fikrlariga qaraganda, qora – ola zotli qoramollar podalarida chatishtirishda golshtin zotiga mansub buqalardan foydalanish olingan sigirlarning sut mahsuldorligini 2541 kg ga, sut yog'i chiqimini 75 kg ga. Sut berish tezligini 0,25 kg/daqiqaga, buzoqlarning 18 oyligida tirik vaznini 57,6 kg ga oshirish imkoniyatini beradi.

A.V.Filatov, I.M.Voloxov, O.V.Pashenko (2014) tadqiqotlarida golshtin zotli buqalardan olingan duragay sigirlarning tirik vazni birinchi laktatsiyada sof qora ola zotli tengqurlarinikidan 8,4—10,1%, sutdorlik koeffitsienti esa 8,2 — 14,1% yuqori bo'lgan.

V. G.Sarabkin, V.F.Zubriyanov (2023), I.L.Suller (2023) xulosalariga qaraganda, sigirlarning sut mahsuldorligi va tirik vazni ularning ajdodlarining ko'rsatkichlariga ko'p jixatdan bogliq bo'lib, jahon genofondiga xos buqalar salohiyatidan keng foydalanish, zotlarni takomillashtirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shunga o'xshash hulosalar I.M.Dunin, A.I.Prudov.K.K.Adjibekov, D.G.Proxorenko (2023) tadqiqotlari natijalarida ham ko'zga tashlanadi.

S.A.Damanov, S.V.Pogodaev (2023) tadqiqotlarida golshtinlashtirilgan buzoqlarning tirik vazni 18 oyligida sof zotli tengqurlarnikiga nisbatan 8,3 kg, ular tuqqandan keyin sut mahsuldorligi esa 523 kg yuqori bo'lganligi kuzatilgan.

A.T.Misik (2015) fikriga ko'ra, sigirlar mahsuldorligi va tirik vaznini oshirishda jahon genofondiga xos zotlarning genetik salohiyatidan unumli foydalanish va mollarni oziqlantirish sharoitini yaxshilash eng muhim usullardan biri bo'lib hisoblanadi.

Laboratoriya sharoitida o'tkazilgan tadqiqotlarda ham ferulen preparati 40mg/kg oziqaga aralashtirib berilgan. Qoramollarda saqlanuvchanlik darajasi oshgan. Qoramollarda tirik vaznining ortishiga, yuqori sifatli go'sht olish natijasiga erishgan. Kasallanishning oldini olish tadbirlarida dori – darmon harajatlari kamayganligi e'tirof etadi.

Shunday qilib, yuqori tirik vaznga ega sigirlarni yetishtirishda to'la qiymatli oziqlantirish va asrash sharoitlari bilan birga kelib chiqishi hamda buzoqlarni maqsadga muvofik etishtirish omillari muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligini kuplab tadqiqotlar natijalari ko'rsatadi. Bu esa yuqori mahsuldor podalar yaratishda ushbu omillarga alohida e'tibor berish muhimligidan dalolat beradi.

Qonning tozalash va 48eying tizimi uchun zarur bo'lgan ozuqa moddalar

Reproduktiv faoliyat va nasl davomiyligi uchun kerakli moddalar Fiziologik holat: Sigirlarning fiziologik holati, ya'ni ularning tug'ganidan 48eying davr yoki laktatsiya (sut ishlab chiqarish) davri, buzoq olish jarayoniga ta'sir qilishi mumkin. Laktatsiya davrida sigirlar ko'proq oziq moddalarni iste'mol qiladilar, va ular yetarli energiya va ozuqa olish uchun doimiy oziqlantirishga muhtoj. Buzoq olish uchun sigirlar muntazam va zarur oziq moddalar bilan ta'minlanishi kerak.

II BOB. TAJRIBA O‘TKAZISH USLUBI VA SHAROITLARI

2.1 Tadqiqot o‘tkazish obyekti haqida

Magistrlik dissertatsiyasi ishi Surxondaryo viloyatining Sherabod tumanidagi, Poshxurt mahallasi Toshpo‘latov Jo‘raniyoz tasarrufidagi xususiy chorva fermer xo‘jaligida parvarishlanayotgan Simmental va Qora-ola zotga mansub qoramollarda Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot, o‘rmonchilik va veterinariya fakulteti, “Zooinjeneriya, veterinariya va ipakchilik” kafedrasida “Qora-ola va Simmental zotli sigirlarning sut mahsuldorligi va ayrim biologik xususiyatlari” ga bag‘ishlangan magistrlik dissertatsiya ishimni magistrlik dissertatsiya ishi amaliyoti davrida Surxondaryo viloyatining Sherabod tumanidagi Toshpo‘latov Jo‘raniyoz tasarrufidagi xususiy chorva fermer xo‘jaligidan keltirilgan materiallar bilan kafedra professor o‘qituvchilari va ilmiy rahbarim bilan kuzatuv olib borish orqali tadqiqotlarini bajardik. Ushbu fermada qora ola zotli sigirlar 200 ta va Simmental zotli sigirlar 100 ta ekan. Ushbu magistrlik dissertatsiya ishi 2024-2026 yillar davomida bajarilgan.

Tajriba uchun o‘xshashlik belgilariga asosan sigirlarning kelib chiqishi, yoshi tirik vazni, onalarining sut mahsuldorligini hisobga olgan holda III va undan yuqori sog‘in davridagi qora ola zotli sigirlarni golshtin zotiga mansub buqalar bilan chatishtirishdan olingan 1/16 qora – ola va 15/16 golshtin zotlari bo‘yicha zotdorlikdagi 2 guruh sigirlar quyidagi tasvirga binoan tanlab olindi (2.1 jadval).

Tadqiqotlarda tajriba guruhlaridagi sigirlarning kelib chikishi, ota onalarining mahsuldorlik ko‘rsatkichlari MOL- 2 kartochkalari asosida o‘rganildi.

Tajriba guruhlari sigirlarning tirik vaznini, fiziologik holatini va sut mahsuldorligini xisobga olgan holda tashkil etildi. Tajriba guruhlariga yilning bir faslida, ya’ni 3 oy davomida qochirilgan va keyinchalik bir fasl mobaynida tuqqan sigirlar tanlab olindi. Sigirlarning tirik vazni bug‘ozlik davrida ular sutdan chiqqandan keyin va sog‘in davrining 3 oyida tarozida yakkama yakkam tortib o‘rganildi, sut mahsuldorligi esa sog‘in davrining 305 kuni mobaynida har 10 kunda nazorat sog‘im o‘tkazish yo‘li bilan o‘rganildi. Sigirlar sutidagi yog‘ Gerber usulida har oyda bir marta har bir sigir bo‘yicha o‘rganildi. Xar bir sigir sutidagi oqsil har

oyda bir marta AM —2 refraktometrida aniqlandi. Sut yog‘I va oqsilining chiqimi, 4%—li sut miqdori, quruq modda va yog‘sizlantirilgan sut qoldig‘I N.V.Barabanshikov (1986) formulalari bo‘yicha hisoblab chiqildi. Sigirlarning ekstereri 8 ta tana o‘lchamini: yag‘rin va sag‘ri balandliklari, ko‘krak chuqurligi, uning eni va aylanasi, gavdaning qiya uzunligi, orqa do‘ng suyak eni va poycha aylanasi o‘lchash hamda ushbu tana o‘lchamlari asosida uning indekslarini hisoblab chiqish orsali o‘rganildi. Tajriba guruhlaridagi sigirlarni yelin xususiyatlari yelinning uzunligi, eni va aylanasi, oldingi va orqa qismlarining chuqurligi, so‘rg‘ichlar diametrini, sut berish tezligini va yelin indeksini o‘rganish “Sut va sut – go‘sh t zotli sigirlar yelini va sut berish tezligini baholash” (M., 1970) yo‘riqnomasiga binoan amalga oshirildi. Sigirlarning klinik kursatkichlari (tana harorati, nafas olishi va yurak urish tezligi) Ye.A.Arzumanyan (1957) uslubn buyicha o‘rganildi.

Sigirlarning pushtdorlik xususiyatlarini baholashda ularning bo‘g‘ozlik va tuqqandan 50eying tirik vazni, bo‘g‘ozlik davomiyligi, servis —davri muddati, birinchi qochirishdan otalanish darajasi, qochirish indeksi zootexniyada umumiy qabul qilingan usullarda o‘rganildi. Tajriba davomida har bir bosh sigirga ketgan ozuqa miqdori xar 10 kunda nazorat oziqlantirishni o‘tkazish asosida hisoblab chiqildi. Sigirlarning ozuqani sut bilan qoplash xususiyatlari V.Ye.Nedava (1966) usulida o‘rganildi. Sigirlarning asosiy seleksiya belgilari o‘rtasidagi o‘zaro boglanuvchanlik, regressiya va irsiyat koeffitsientlari RS|AT kompyuterida aniqlandi. Bizning tadqiqotimizda iqtisodiy samaradorlik har bir mahsulot tannarxi bilan undan olingan mahsulot tannarxi o‘rtasidagi farqni hisoblash yo‘li bilan aniqlandi. Olingan barcha ma‘lumotlar E. K. Merkureva (1970) usuli bo‘yicha qayta ishlab chiqarilgan. Sutbop podalardagi sigirlarning sut mahsuldorligi bilan birga ularning ekstrerini mutanosib rivojlanishini ,sut xiliga mansub sigirlar salmog‘ini oshirish, yelin xususiyatlarini,ozuqani sut bilan qoplash darajasini yaxshilash imkoniyatlarini beradigan genotipga ega nasldor buqalardan ham keng foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligini (Saksa E. Barsuqova va O. E. 2007) ta’kidlaydilar.

Sigirlarni sut mahsuldorligiga ularni tirik vazni ham tasir ko'rsatadi va bu ikki ko'rsatkich o'rtasida odatda ijobiy korrelyatsiya mavjud. Sigir zotidan qat'iy nazar, har bir podada odatda yuqori mahsuldor sigirlar yuqori tirik vaznga ham ega bo'ldilar. Shu tufayli bu ko'rsatkich o'rtasida ijobiy korrelyatsiya koeffitsienti bo'yicha seleksiya ishlarini olib borish yuqori podalar yaratishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

V.K.Chernushenko, V.I.Listratenkova, D.I.Kolsov, O.V. Tatuyeva (2009) tadqiqotlarida sigirlarning xo'jalikda foydalanish muddatiga, ularning birinchi tug'ishdagi yoshiga, birinchi laktatsiyadagi sersut qilinish darajasi va tizimlariga mansubligi ko'rsatkichlari ta'sir etgan.

A.Chomayev, M.Tekeyev, I.Kambiyev, (2010) tadqiqotlarda podani to'ldiruvchi buzoqlarni jadal o'stirishni tashkil etish ularning keyinchalik birinchi tug'ishdagi yoshini 24-26 oygacha, qisqartirish, tirik vaznini oshirish imkonini berishi va yuqori mahsuldor sigirlarni yetishtirishni ta'minlashi aniqlangan.

2.2. Tadqiqot o'tkazish shakli hamda usuli

Tadqiqot obyekti sifatida sut yo'nalishidagi bug'oz sigirlar tanlab olindi. Tajribalar xo'jalik sharoitida tashkil etilib, sutdan chiqarilgan bug'oz sigirlarni to'la qiymatli oziqlantirishning sut mahsuldorligi hamda sog'lom buzoq olishga ta'siri o'rganildi. Tajriba uchun yoshi, tirik vazni, mahsuldorligi va fiziologik holati bir-biriga yaqin bo'lgan sigirlar analoglar usulida guruhlariga ajratildi. Bunda nazorat guruhi xo'jalikda qabul qilingan odatiy ratsion asosida oziqlantirilgan bo'lsa, tajriba guruhidagi sigirlarga ilmiy asosda tuzilgan balanslashtirilgan ratsion qo'llanildi.

Tadqiqot davomida sigirlarning oziqa iste'moli, tirik vazni, tana konditsiyasi, fiziologik holati va keyingi laktatsiyadagi sut mahsuldorligi muntazam kuzatib borildi. Shu bilan birga tug'ilgan buzoqlarning tirik vazni, yashovchanligi va rivojlanish ko'rsatkichlari ham o'rganildi. Sigirlarning sut mahsuldorligi har kuni nazorat sog'implari asosida aniqlanib, sut tarkibidagi yog' va oqsil miqdori laboratoriya sharoitida tekshirildi.

Ratsion tarkibidagi quruq modda, xom protein, yog', kletchatka va mineral moddalar miqdori zootexnik hamda laboratoriya usullarida aniqlandi. Tadqiqot

davomida sigirlarning umumiy fiziologik holati, tana harorati, yurak urishi va nafas olish ko'rsatkichlari muntazam nazorat qilindi. Olingan barcha natijalar biometrik usulda matematik-statistik jihatdan qayta ishlanib, o'rtacha ko'rsatkichlar va ularning ishonchlilik darajasi aniqlandi. Shuningdek, tadqiqot yakunida to'la qiymatli oziqlantirishning iqtisodiy samaradorligi hisoblab chiqildi. Bunda yem sarfi, olingan sut miqdori, buzoq olish ko'rsatkichlari hamda xo'jalik rentabelligiga ta'siri tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida sutdan chiqarilgan bug'oz sigirlarni samarali oziqlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Qora-ola va Simmental zotli sigirlarning ayrim biologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan kuzatuv va tajribalar. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi ishida Qora-ola va Simmental zotli sigirlarning ayrim biologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy kuzatuv va tajribalar olib borildi. Tadqiqot ishlari xo'jalik sharoitida tashkil etilib, tajriba uchun yoshi, tirik vazni, fiziologik holati va mahsuldorligi bir-biriga yaqin bo'lgan sigirlar tanlab olindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu zot sigirlarining biologik, fiziologik hamda mahsuldorlik ko'rsatkichlarini qiyosiy o'rganish va ularning xo'jalik uchun foydali belgilarini aniqlashdan iborat bo'ldi. Tajriba ishlari davomida Qora-ola va Simmental zotli sigirlarning tirik vazni, tana tuzilishi, oziqa iste'moli, sut mahsuldorligi, sut tarkibi hamda reproduktiv ko'rsatkichlari muntazam kuzatib borildi. Shuningdek, sigirlarning tashqi eksteryer belgilari, tana o'lchamlari va konstitutsion xususiyatlariga ham alohida e'tibor qaratildi. Har bir sigirning ko'krak aylanasi kengligi, gavda uzunligi, bo'yi balandligi hamda tana rivojlanish ko'rsatkichlari zootexnik usullar yordamida aniqlandi. Tadqiqot davomida sigirlarning sut mahsuldorligi nazorat sog'imlari asosida hisoblab borildi. Sut tarkibidagi yog' va oqsil miqdori laboratoriya sharoitida tekshirildi. Olingan natijalar asosida har ikkala zotning sut berish xususiyatlari o'zaro taqqoslandi. Kuzatuvlar natijasida Simmental zotli sigirlarning tirik vazni va tana rivojlanishi yuqoriroq bo'lishi, Qora-ola zotli sigirlarda esa sut mahsuldorligi nisbatan yuqori ekanligi qayd etildi.

Bundan tashqari, tajriba davomida sigirlarning oziqa hazm qilishi, oziqadan foydalanish darajasi va fiziologik holati ham o'rganildi. Ratsion tarkibidagi oziq

birliklari, hazmlanuvchi protein, mineral moddalar va vitaminlarning organizmga ta'siri baholandi. Sigirlarning umumiy holati, tana harorati, yurak urishi va nafas olish ko'rsatkichlari veterinariya kuzatuvlari asosida nazorat qilindi. Reproduktiv xususiyatlarni o'rganish maqsadida sigirlarning bo'g'ozlik davomiyligi, tug'ruqning o'tishi, tug'ilgan buzoqlarning tirik vazni va yashovchanligi ham tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Simmental zotli sigirlardan olingan buzoqlarning tirik vazni yuqoriroq bo'lganligi, Qora-ola zotli sigirlarda esa sut mahsuldorligi va sut tarkibi ko'rsatkichlari yaxshi rivojlanganligi aniqlandi. Olingan barcha ma'lumotlar biometrik usullar yordamida matematik-statistik jihatdan qayta ishlandi. Natijalar asosida Qora-ola va Simmental zotli sigirlarning biologik va xo'jalik foydali belgilariga baho berildi hamda ularni samarali parvarishlash va oziqlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Sherobod tumanida bahor fasli odatda mo'tadil va yoqimli ob-havo bilan boshlanadi. Bu davrda tuproq namlanadi, ekinlar uchun qulay sharoitlar yuzaga keladi. Mart: Sovuq qishdan keyin havo asta-sekin isiy boshlaydi. Kechasi hali sovuq bo'lishi mumkin, ammo kunduzi harorat $+15...+20^{\circ}\text{C}$ atrofida bo'ladi. Bu davrda yomg'irlar ko'p yog'adi, shamolli kunlar ham kuzatiladi. Tuproq nam bo'lib, dehqonchilik uchun muhim davr boshlanadi. Aprel: Bahorning o'rtalarida havo ancha iliqlashadi. Harorat $+20...+25^{\circ}\text{C}$ ga yetadi. Yomg'ir kamroq yog'adi, ammo vegetatsiya davri faol davom etadi. Ekin ekish, parvarish qilish uchun eng maqbul oy hisoblanadi. May: Bahorning oxiri yozga o'tish davridir. Harorat $+25...+30^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tariladi. Havoning nisbiy namligi pasayadi, bu esa yozning issiq davriga tayyorgarlik bosqichidir. O'simliklarning o'sishi jadal bo'ladi, chorvachilik uchun ham ob-havo qulay. Sherobodda yoz juda issiq va quruq kechadi. Bu fasl yarim cho'l va dasht zonasi xususiyatlariga ega bo'lgan mintaqalarda shunday bo'lishi tabiiy. Iyun: Havo ancha issiydi, kunduzlari harorat $+30...+35^{\circ}\text{C}$. Shamol ba'zan issiq bo'lib, yomg'ir deyarli yog'maydi. Qoramollar uchun salqin joylar va ichimlik suv muhim ahamiyat kasb etadi.

Iyul: Yozning eng issiq oyi. Harorat $+35...+40^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tariladi. Quyosh nuri kuchli, bug'lanish tez. Dehqonchilikda sug'orishning roli juda oshadi.

Chorvachilikda esa sigirlarning sut ishlab chiqarishi kamayishi mumkin — bunga issiqlik stressi sabab bo'ladi. Avgust: Issiqlik davom etadi, biroq oy oxirida bir oz pasayishi mumkin. Kechalar nisbatan salqinlashadi. Hosil yig'im-terimi boshlanadi. Cho'lga yaqin joylarda changli shamollar bo'lishi mumkin. Kuz Sherobodda yumshoq o'tish davri hisoblanadi. Issiq yozdan salqin qishga tayyorgarlik boshlanadi. Haroratlar bosqichma-bosqich pasayadi.


Sentabr: Iliq va quruq havo hukm suradi. Harorat $+28...+33^{\circ}\text{C}$ atrofida. Hali yozgi kiyim-bosh kiya bo'ladi, ammo kechalari sovuqroq bo'lishi mumkin. Qishloq xo'jaligi uchun hosil yig'ish va saqlash davri. Oktabr: Harorat $+20...+25^{\circ}\text{C}$ gacha pasayadi. Ob-havo biroz namroq bo'ladi, yomg'irlar ko'payadi. Chorvachilikda yem-xashak tayyorlash, qishki boqimga tayyorgarlik ishlari olib boriladi. Noyabr: Qish yaqinlashgan sayin harorat $+10...+15^{\circ}\text{C}$ atrofida bo'ladi, kechalari 0°C gacha tushadi. Yomg'irlar tez-tez yog'adi, ba'zida qor aralash yog'ingarchilik kuzatiladi. Yaylovlar cheklanadi, qoramollarni ichkariga olish boshlanadi. Sherobod tumanining qishi boshqa viloyatlarga nisbatan yumshoqroq, ammo baribir sovuq va nam bo'ladi. Dekabr: Havo sovuq, kunduzlari $+5...+10^{\circ}\text{C}$, kechalari 0°C yoki pastroq. Yog'ingarchilik ko'p, ba'zida qor yog'adi. Issiqlik manbalari, chorvani iliq joylarda saqlash dolzarb bo'ladi. Yanvar: Eng sovuq oylardan biri. Kunduzgi harorat $+3...+8^{\circ}\text{C}$, kechalari $-5...0^{\circ}\text{C}$. Ba'zan sovuq havo massalari kirib kelib, harorat -10°C gacha tushishi mumkin. Qor yog'ishi va yerning muzlashi ehtimoli yuqori. Fevral: Qishdan bahorga o'tish davri. Havo asta-sekin isiydi, yomg'ir va qor aralash yog'ingarchilik kuzatiladi. Harorat kunduzlari $+8...+12^{\circ}\text{C}$ atrofida. Boshlaydi. Sutbop podalardagi sigirlarning sut mahsuldorligi bilan birga ularning ekstrinerini mutanosib rivojlanishini, sut xiliga mansub sigirlar salmog'ini oshirish, yelin xususiyatlarini, ozuqani sut bilan qoplash darajasini yaxshilash imkoniyatlarini beradigan genotipga ega nasldor buqalardan ham keng foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligini (Saksa E. Barsuqova va O. E. 2007) ta'kidlaydilar. Sigir zotidan qa'tiy nazar, har bir podada odatda yuqori mahsuldor sigirlar yuqori tirik vaznga ham ega bo'ldilar. Shu tufayli bu ko'rsatkich o'rtasida ijobiy korrelyatsiya

koeffitsenti bo'yicha seleksiya ishlarini olib borish yuqori podalar yaratishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

V.K.Chernushenko , V.I.Listratenkova , D.I.Kolsov, O.V. Tatuyeva (2009) tadqiqotlarida sigirlarning xo'jalikda foydalanish muddatiga, ularning birinchi tug'ishdagi yoshiga , birinchi laktatsiyadagi sersut qilinish darajasi va tizimlariga mansubligi ko'rsatkichlari ta'sir etgan.

A.Chomayev, M.Tekeyev, I.Kambiyev, (2010) tadqiqotlarda podani to'ldiruvchi buzoqlarni jadal o'stirishni tashkil etish ularning keyinchalik birinchi tug'ishdagi yoshini 24-26 oygacha, qisqartirish, tirik vaznini oshirish imkonini berishi va yuqori mahsuldor sigirlarni yetishtirishni ta'minlashi aniqlangan.

TADQIQOT TASVIRI



III- BOB. TADQIQOT NATIJALARI VA XUSUSIYATLARI

3.1 Simmental va qora-ola zotli sigirlarning eksteryer ko'rsatkichlari

Qoramolchilikda sigirlarning eksteryer ko'rsatkichlari ularning naslchilik qimmatini, mahsuldorligi va xo'jalik sharoitlariga moslashuvchanligini baholashda muhim ahamiyatga ega. Eksteryer belgilar sigirlarning sut va go'sht mahsuldorligi, sog'lig'i hamda uzoq muddatli foydalanish imkoniyatlarini aniqlashda asosiy mezonlardan hisoblanadi. Ushbu bo'limda Simmental va qora-ola zotli sigirlarning asosiy eksteryer xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Simmental zotli sigirlarning eksteryer ko'rsatkichlari

Simmental zotli sigirlar sut-go'sht yo'nalishiga mansub bo'lib, tana tuzilishi mustahkam va rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Tana tuzilishi: Simmental sigirlari yirik va kuchli konstitutsiyaga ega. Tana keng, chuqur va cho'zilgan bo'lib, skeleti mustahkam rivojlangan. Mushaklar yaxshi rivojlanganligi go'sht mahsuldorligining yuqoriligini ta'minlaydi. Bosh va bo'yin: Boshi o'rtacha kattalikda, peshonasi keng, yuzi to'g'ri. Bo'yni qisqa va yo'g'on bo'lib, gavdaga mustahkam tutashgan. Ko'kragi keng va chuqur, qovurg'alari yaxshi yoyilgan. Bu xususiyat yurak-qon tomir va nafas olish tizimining yaxshi rivojlanganligini ko'rsatadi. Orqa va bel qismi: Orqasi keng va tekis, bel qismi qisqa va mustahkam. Dumg'aza keng va biroz qiyaroq joylashgan bo'lib, bu tug'ish jarayonining yengil kechishiga yordam beradi.

Oyoqlar: Oyoqlari qisqa, to'g'ri va mustahkam. Tuyoklari zich va mustahkam bo'lib, uzoq vaqt boqishga chidamli.

Yelin tuzilishi: Yelini o'rtacha kattalikda, ko'pincha kosasimon shaklda. So'rg'ichlari bir xil rivojlangan bo'lib, sog'ishga qulay.

Rangi: Asosan och sariqdan qizg'ish ranggacha bo'lib, boshi va ko'krak qismi ko'pincha oq rangda bo'ladi. Qora-ola (qora zotli) sigirlarning eksteryer ko'rsatkichlari. Qora-ola zotli sigirlar sut yo'nalishiga mansub bo'lib, yuqori sut mahsuldorligi bilan ajralib turadi.

Tana tuzilishi: Tana tuzilishi nisbatan yengil, cho'zilgan va balandroq bo'ladi. Skeleti nozikroq, ammo mustahkam. Bosh va bo'yin: Boshi yengil, peshonasi torroq.

Bo'yni uzun va ingichkaroq bo'lib, sut yo'nalishiga xos belgilarni namoyon etadi. Ko'krak qismi: Ko'kragi chuqur, lekin Simmental zotiga nisbatan torroq. Qovurg'alar orasi keng bo'lib, ovqat hazm qilish tizimi yaxshi rivojlangan. Orqa va bel qismi: Orqasi uzun va tekis, bel qismi elastik. Dumg'aza qismi keng va tekis bo'lib, sut mahsuldorligiga qulay sharoit yaratadi. Oyoqlar: Oyoqlari uzunroq, suyaklari nisbatan ingichka, ammo mustahkam. To'g'ri joylashgan oyoqlar sigirning harakatchanligini ta'minlaydi. Yelin tuzilishi: Yelini katta, kosasimon yoki vannasimon shaklda, yaxshi rivojlangan. So'rg'ichlari o'rtacha uzunlikda, sog'ishga juda qulay. Rangi: Asosan qora-oq rangli bo'lib, ranglar tanada aniq ajralib turadi.

3.1.1-jadval

Simmental va qora-ola sigirlar eksteryer ko'rsatkichlarining taqqoslanishi

Ko'rsatkich	Simmental zoti	Qora-ola zoti
Tana turi	Yirik, kuchli	Cho'zilgan, yengil
Skelet	Juda mustahkam	Nisbatan nozik
Mushaklar	Juda rivojlangan	O'rtacha
Ko'krak	Keng va chuqur	Chuqur, torroq
Yelin	O'rtacha kattalikda	Katta va rivojlangan
Asosiy yo'nalish	Sut-go'sht	Sut

Simmental va qora-ola zotli sigirlarning eksteryer ko'rsatkichlari ularning ishlab chiqarish yo'nalishiga to'liq mos keladi. Simmental zotida tana mustahkamligi va mushaklarning rivojlanganligi ustun bo'lsa, qora-ola zotida sut mahsuldorligini ta'minlovchi yelin va cho'zilgan tana tuzilishi ustunlik qiladi. Ushbu eksteryer xususiyatlarini hisobga olish naslchilik ishlarini to'g'ri tashkil etish va yuqori mahsuldor podalar shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3.2. Qoramollarni oziqlantirish va saqlash sharoitlari

Hayvonlarni oziqlantirish sharoitini to'g'ri tashkil etish, ularni mahsuldorlik salohiyatidan samarali foydalanishning asosiy omili hisoblanadi. Ko'pgina olimlarning ta'kidlashicha, mollar mahsuldorligiga ta'sir qiladigan omillarning 59–60 foizi aynan ozuqa omiliga bog'liq ekan (D.L. Levantin, 1966; L.K. Ernst, 1974; Sh.A. Akmalxonov, 1984; U.N. Nosirov, 1971, 2001; A.P. Kalashnikov, 1985; Z.T. To'raqulov, 1985; P.S. Sobirov, 1990; M.E. Ashirov, 1994; A.B. Qoraqulov, 1996). Shuning uchun ham biz tajribadagi mollarni har bir o'sish davri uchun alohida ratsion tuzib, uning umumiy to'yimlilik, tarkibidagi hazmlanuvchi protein, mineral moddalar va vitaminlarni e'tiborga oldik.

Mollarni asosan xo'jalikning o'zida yetishtiriladigan mahalliy ozuqalar bilan oziqlantirdik. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tashqaridan faqatgina paxta shluxasi va shrot sotib olingan xolos, qolgan barcha ozuqa turlari xo'jalikning o'zida yetishtirilgan va uning sifati talab darajasida bo'lgan.

Tajribadagi mollarga berilgan jami ozuqa miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi 3.2.1-jadvalda berilgan. Jadval ko'rsatkichlaridan ma'lumki, tajriba davomida hayonlarga 11 xil ozuqa berildi.

Yog'i olingan sut, xashaki lavlagi, makkajo'xori silosi, paxta shluxasi, shroti va omuxta-yem kabi ozuqalarni iste'mol darajasi deyarli barcha hayvonlarda bir xil bo'ldi.

Xuddi shunday ko'k makkajo'xori, senaj kabi ozuqalarning ham iste'mol qilish darajasi bo'yicha katta farq aniqlanmadi. Hayvonlar ratsionidagi omuxta-yem miqdori har xil o'sish davrida turlicha bo'lgan. Aytaylik, 3 oydan 6 oygacha jami iste'mol qilingan yem-xashakning 23,0–24,0 foizini tashkil etgan bo'lsa, oxirgi o'sish davrida, ya'ni 18 dan 21 oylikkacha bu ko'rsatkich 35,0–36,2 foizga yetdi. Ammo ratsionning salmoqli o'rnini barcha o'sish davrida ham ko'k va shirali ozuqalar tashkil qildi

3.2.1-jadval

Tajriba davomida mollarga sarflangan ozuqa miqdori (1 boshga), kg

Ozuqalar turi	I-qora-ola	II-simmental
Yog'i olingan sut	120	120
Beda o'ti	3720	3745
Ko'k makkajo'xori	1250	1240
Xashaki lavlagi	350	345
Senaj	766	750
Makkajo'xori silosi	1030	1008
Beda pichani	550	552
Tabiiy o't pichani	646	665
Paxta shluxasi	1300	1295
Paxta shroti	30	30
Omuxta yem	1157	1157
Osh tuzi	19,4	19,4
Iste'mol qilingan ozuqaning to'yimliliigi, ozuqa birligi	3584,4	3581,5
Hazmlanuvchi protein	444,0	444,7
Quruq modda	5005,0	5013,2
Almashinuvchi energiya, MDj	41158,5	41505,7

Hayvonlarning mineral moddalarga bo'lgan talabi nafaqat ozuqalar, balki qo'shimcha ravishda osh tuzi va bo'rlar hisobidan qondirildi. Umuman olganda, tajribadagi hayvonlarni oziqlantirish sharoiti salmoq jihatdan ham, sifat jihatdan ham yuqori darajada bo'ldi.

3.2.2-jadval

Tajribadagi mollarga iste'mol qilingan ozuqalar turi bo'yicha tarkibi (1 boshga)

Ozuqa turlari	I (ozuqa birligi)	%	II (ozuqa birligi)	%
Sut mahsuloti	15,6	0,4	15,6	0,4
Ko'k va shirali ozuqalar	1584,0	44,2	1575,9	44,0
Dag'al ozuqalar	917,3	25,6	922,4	25,8
Omuxta yem	1067,6	29,8	1067,6	29,8
Jami	3584,5	100	3581,5	100

Tajribadagi hayvonlarni asrash sharoiti bir xil bo'ldi. 6 oylikdan 9 oyligigacha uch devorli ayvonda boqildi. Har bir bosh mol uchun foydalanish maydoni 1,50–2,50 m² ni va oziqlanadigan joyi 0,51–0,85 m ni tashkil qildi. 9 oydan 15 oygacha qish davrida binoda bog'lamasdan boqildi. Keyingi uch oy davomida, ya'ni 15 oydan 18 oygacha hayvonlar yayratish maydoni bo'lgan uch devorli molxonada bog'lamasdan boqildi. 18–27 oy oralig'ida ham molxonada bog'lamasdan boqildi.

Har bir bosh hayvon uchun foydalaniladigan maydon 1,90–2,50 m² ni va oziqlanish joyi esa 0,90–1,0 m ni tashkil qildi. Hayvonlar saqlangan barcha molxonalarning atrofi toza-ozoda saqlandi. Ular aholi yashaydigan qishloqdan va katta avtomobil yo'lidan 2,0–3,0 km uzoqlikda, havosi toza hududda joylashgan.

Shunday qilib, tajribadagi hayvonlarni oziqlantirish va asrash sharoiti bir xil va talab darajasiga yaqin bo'ldi.

Ozuqadan foydalanish samaradorligi. Chorvachilikda ozuqadan foydalanish samaradorligi sut mahsuldorligini oshirish va ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishning eng muhim omillaridan biridir. Ozuqa moddalari sigir organizmida sut sintezi, moddalar almashinuvi, tirik vaznni saqlash va reproduktiv jarayonlarni ta'minlashga yo'naltiriladi. Ozuqadan foydalanish samaradorligi sigirlarning

biologik xususiyatlari, zotga xos metabolik faolligi, fiziologik holati hamda ratsion tarkibiga bevosita bog'liq.

